

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

**YER UCHASTKALARIDAN FOYDALANISHDA DAVLAT NAZORATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH
CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA**

So'nggi yillarda respublikada yer uchastkalaridan oqilona va maqsadli foydalanilishini ta'minlash, ularni muhofaza qilish, yangi yerlarni o'zlashtirish hamda qayta muomalaga kiritish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Biroq, hududlarda yer qonunchiligiga rioya qilmaslik, yer uchastkalaridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish, jumladan noqonuniy qurilmalar qurish, shuningdek, yerlarni o'zboshimchalik bilan egallash holatlari uchrayotganligi bu borada raqamli texnologiyalardan keng foydalanish orqali yagona nazorat tizimini joriy etish hamda vakolatli idoralar o'rtasida hamkorlikni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Yer uchastkalaridan samarali foydalanish tizimini yo'lga qo'yish, yerlar, ayniqsa, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar talon-toraj qilinishining oldini olish, mazkur jarayonlarga axborot texnologiyalarini keng joriy qilish orqali sohada raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, erga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6243-son [Farmonida](#) belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida:

1. Yer uchastkalaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasida nazoratni yanada kuchaytirish maqsadida prokuratura organlari zimmasiga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatilsin:

yer uchastkalarini ajratish, yangi yerlarni o'zlashtirish hamda qishloq xo'jaligi muomalasiga kiritish bilan bog'liq respublika va mahalliy dasturlarda belgilangan tadbirlarning o'z vaqtida va to'liq ijro etilishi yuzasidan muntazam nazorat o'rnatish;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan va mo'ljallanmagan yer uchastkalarini ajratishda Yer [kodeksida](#) belgilangan talablarga rioya qilinishini ta'minlash yuzasidan doimiy nazoratni amalga oshirish;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlarini ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron — "E-qaror" tizimini (keyingi o'rinlarda — "E-qaror" elektron tizimi) doimiy ravishda monitoring qilish hamda qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo'lmagan qarorlarga nisbatan ta'sir choralari ko'rib borish;

yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallash va ulardan noqonuniy foydalanish holatlarini barvaqt aniqlash hamda huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan jazoning muqarrarligi ta'minlanishi ustidan qat'iy prokuror nazoratini o'rnatish;

yer to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi ahvolini muntazam o'rganib borish, sohada huquqni qo'llashning yagona amaliyotini shakllantirish;

ilg'or xorijiy tajriba asosida yerdan oqilona foydalanish bo'yicha takliflar tayyorlash;

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat ta'minoti jamg'armasi mablag'lari, shuningdek, sohaga yo'naltirilayotgan tegishli budjetdan tashqari mablag'lar, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari mablag'lari maqsadli sarflanishini o'rganib borish.

2. Prokuratura organlari zimmasiga yuklangan qo'shimcha vazifalar ijrosini samarali tashkil etish maqsadida Bosh prokuratura tarkibida 8 ta shtat birligidan iborat bo'lgan Yer resurslari talon-toraj qilinishining oldini olish boshqarmasi (keyingi o'rinlarda — Boshqarma), Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalarida esa umumiy soni 56 ta shtat birligidan iborat bo'lgan Yer resurslari talon-toraj qilinishining oldini olish bo'limlari (keyingi o'rinlarda — bo'limlar) tashkil etilsin.

Yangi tashkil etilayotgan Boshqarma va bo'limlar prokuratura organlarining 32 ta, Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimining 15 ta, Suv xo'jaligi vazirligi tizimining 7 ta, Vazirlar Mahkamasida huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining 10 ta shtat birliklarini maqbullashtirish hisobidan shakllantirilsin.

Boshqarma va bo'limlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi PF-6243-son [Farmoni](#) bilan yer to'g'risidagi qonun buzilishi holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha Bosh prokuratura va hududiy prokuraturalarga yuklatilgan vazifalarning ijro etib borilishini tashkillashtirsin.

3. Yer uchastkalaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida 2022-yil 1-martdan boshlab shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

a) aholi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallash va ulardan noqonuniy foydalanish holatlari bo'yicha Bosh prokuratura (1007 qisqa raqami) va Kadastr agentligiga (1097 qisqa raqami) yuborilgan fotosurat va videoyozuvlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi;

b) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchilariga (keyingi o'rinlarda — hokim yordamchilari) o'z hududida qurilishi boshlangan har qanday bino yoki inshootlarning qonuniyligini aniqlash bo'yicha mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga, qurilish va kadastr organlariga so'rov yuborish huquqi beriladi, bunda:

mazkur so'rovlar 5 ish kunida majburiy tartibda ko'rib chiqilib, qurilishi boshlangan bino va inshootlarga ruxsat beruvchi hujjatlar mavjud yoki mavjud emasligi to'g'risida ma'lumot taqdim etiladi;

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari so'rovlar asosida olingan ma'lumotlarni o'z binosida barcha fuqarolar uchun ko'rinarli bo'lgan joyda joylashtiradi hamda aniqlangan noqonuniy holatlar bo'yicha ma'lumotlarni bir kunlik muddatda yer sohasida nazoratni amalga oshiruvchi organlarga taqdim etadi.

Kadastr agentligi ikki oy muddatda Yer kodeksining [84-moddasida](#) nazarda tutilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallash va noqonuniy foydalanish bo'yicha xabar bergan shaxslarni pul mukofoti bilan rag'batlantirish tartibini Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritsin.

4. Belgilansinki, erga oid huquqbuzarliklarning monitoringini yuritish bo'yicha yaratilgan "E-YER NAZORAT" avtomatlashtirilgan axborot tizimini (keyingi o'rinlarda — "E-YER NAZORAT" tizimi) takomillashtirish maqsadida:

"E-YER NAZORAT" tizimiga erga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida kiritish va huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqish natijalari to'g'risida ma'lumotlarni joylashtirish uchun Kadastr agentligi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Majburiy ijro byurosi va ularning hududiy bo'linmalari hamda tegishli mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari mas'ul hisoblanadi;

"E-YER NAZORAT" tizimida yer uchastkalari bilan bog'liq sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha ma'lumotlar xaritasi alohida yuritiladi.

Kadastr agentligi Bosh prokuratura va boshqa vakolatli organlar bilan birgalikda bir oy muddatda "E-YER NAZORAT" tizimiga qo'zg'atilgan jinoyat ishlari haqidagi ma'lumotlarni kiritish tartibini belgilasin.

5. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining yer munosabatlariga doir hujjatlari qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta'minlash maqsadida shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra tashkil etilayotgan Boshqarma Adliya vazirligi bilan birgalikda:

"E-qaror" elektron tizimi orqali mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining yer munosabatlariga doir hujjatlarini doimiy ravishda monitoring qilib boradi;

monitoring natijalariga ko'ra qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo'lmagan qarorlar yuzasidan darhol prokuror ta'sir choralari qo'llanilishini ta'minlaydi.